

O'SMIRLARNING KASBIY O'ZINI ANGLASHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Yo'ldoshqulov A.B

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti 2-bosqich magistranti asadbekyoldoshqulov6@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'smirlarning kasbiy o'zini anglash jarayonida psixologik omillarning ahamiyati, xususan, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, temperament va xarakter xususiyatlarining kasb tanlashga ta'siri ko'rsatishi bayon etildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida o'smirlarning kasbiy o'zini anglashida psixologik jarayonlar va individual xususiyatlarning roli, ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shuningdek ularda uchraydigan muammolar "o'smirlarning o'z qobiliyatlarini yetarli baholay olmasligi sabablari", "o'ziga ishonchsizlik va motivatsiya pasayishi" sabablari va ularning yechimlari haqida natijalar tahlili bayon qilinmoqda.

Tayanch so'zlar: kasbiy o'zini anglash, psixologik omillar, qobiliyat, motivatsiya, temperament, xarakter, qiziqishlar, o'zlik kontsepsiyasi.

Аннотация: В статье рассматривается значение психологических факторов в процессе профессионального самосознания подростков, в частности, влияние их интересов, способностей, мотивации, темперамента и черт характера на выбор профессии. В результате исследования представлен анализ результатов, касающихся роли психологических процессов и индивидуальных особенностей в профессиональном самосознании подростков, социальных факторов, влияющих на них, а также проблем, с которыми они сталкиваются, в частности, «причины, по которым подростки не могут адекватно оценить свои способности», «неуверенности в себе и снижения мотивации» и путей их решения.

Ключевые слова: профессиональное самоопределение, психологические факторы, способности, мотивация, темперамент, характер, интересы.

Abstract: The article describes the importance of psychological factors in the process of adolescents' professional self-awareness, in particular, the influence of their interests, abilities, motivation, temperament and character traits on the choice of profession. As a result of the research, an analysis of the results is presented on the role of psychological processes and individual characteristics in adolescents' professional self-awareness, the social factors affecting them, as well as the problems they encounter, the reasons for which are "the reasons why adolescents cannot adequately assess their abilities", the causes of "lack of self-confidence and decreased motivation" and their solutions.



Keywords: *career self-determination, psychological factors, abilities, motivation, temperament, personality traits, interests.*

KIRISH

O'smirlarning kasbiy o'zini anglashiga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz? Bundan tashqari hozirgi kunda o'smirlarning kasb tanlashiga qanday psixologik omillar ta'sir etmoqda? Kasb tanlashda shaxsning individual xususiyatlari muhim ro'l kasb etadimi yoki ijtimoiy tasirlarmi? Bu savollarga quydagicha javob bersak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi davrda ta'lim taraqqiyotiga o'smirlarni ta'limga yoki kasbga yo'naltirish maqsadida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik puxta o'zlashtirishga qodir, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi [1].

Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutaxassisning mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir,[4.1] mehnat bozori talablari va jamiyatdagi kasblar xilma-xilligi o'smirlardan o'z kasbiy kelajagi haqida ongli qaror qabul qilishni talab etadi. Psixolog olimlarning izlanishlarining natijalariga ko'ra, o'smirlik davri kasbiy o'zini anglashning eng faol shakllanadigan bosqichidir. Shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari, shaxs xususiyatlari va motivatsiyasi aynan ushbu davrda barqarorlashib, kasb tanlovida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [1].

Afsuski, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar o'z psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olmasligi, kasblar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmashligi yok iota onasi farzandining qobiliyatlariga to'g'ri baho bermasligi va ularni o'zlari bolalaiklarida amalga oshira olmagan orzularining qurboni qilishlari sababli kasbiy tanlovda qiynalishadi. Shu bois o'smirlarning kasbiy o'zini anglash jarayonida psixologik omillarni chuqur o'rganish va o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini anglangan holatda chuqurroq o'rganish muhim hisoblanadi.bu esa har bir shaxsning kasbiy faoliyatida, jamiyatda, rivojlanishini bundan tashqari o'z kasbini rivojlantirishiga va davlatining rivojiga juda katta tasir ko'rsatatadi.

Ushbu maqolada o'smirlarning kasbiy o'zini anglashiga ta'sir etuvchi muammolar ularning yechimlari, ularning qiziqishlari, kasb tanlashga ta'sir etuvchi psixologik omillar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi va amaliy yechimlar taklif etiladi.





Psixologik omillarning kasbiy tanlovga ta'siri yani o'smirlarda qiziqishlar va motivatsiyasiga etibor qaratadigan bo'lsak. Kasbiy qiziqish – o'smirning ma'lum faoliyat turiga nisbatan ijobiy munosabatini bildiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. O'smirlarda qiziqishning shakllanishi ularning kasbga bo'lgan ongli munosabatini rivojlantiradi. Olimlarning olib borgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb tanlovida ichki motivlar – qiziqish, o'zini namoyon qilish istagi, jamiyatga foyda keltirish kabi omillar yetakchi o'rin tutadi [2].

O'smirlarning qiziqishi, mayli, intilishi, qobiliyati, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish ular uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishlari kerak. Zero, bu amaliy faoliyat fuqarolik jamiyati rivojlanishiga xizmat qiladi. Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan.

Bu borada rus olimi T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) kasbiy moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;
- 2) kasbiy ta'lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;
- 4) kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi [4.2]

Mazkur tasnifda keltirilgan har bir bosqichda kasb tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari qobiliyat va intellektual rivojlanish ham o'smirlarning rivojlanishiga katta tasir ko'rsatadi. Qobiliyatlar o'smirning kasbiy yo'nalishini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. O'quvchilarning umumiy (mantiqiy fikrlash, xotira, e'tibor, tafakkur) va maxsus qobiliyatlari (texnik, lingvistik, ijodiy) rivojlanishi kasbiy tanlovda muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar qobiliyat va kasb o'rtasidagi moslik kasbiy muvaffaqiyatning 60% dan ortig'ini tashkil etishini ko'rsatadi [3].

Har bir shaxsning dunyo qarashi, fikirlashi, temperament va xarakter xususiyatlari bir-biridan tuptan farq qiladi. Bu esa ularning turli kasb tanlashiga sabab bo'luvchi muhim omillardan dir. Temperament o'smirning psixik jarayonlar sur'atini belgilaydi va kasb tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

- sangviniklar – kommunikativ kasblarga; jurnalist, menejer, o'qituvchi, psixolog
- flegmatiklar – tartibli, tahliliy ish joylariga; hisobchi, dasturchi, injener
- xoleriklar – yuqori dinamika talab qiluvchi kasblarga; rahbar, harbiy, sportchi
- melanxoliklar – ijodiy-senzitiv faoliyatlarga moyil bo'ladilar; dizayner, yozuvchi, musiqachi





Xarakter xususiyatlari – mas’uliyatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, qat’iyatlilik kasbiy moslashuv jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ham shaxslarni turli sohalarda faoliyat yuritishiga ta’sir ko’rsatuvchi omildir.

O’smirlarning kasb tanlashiga ta’sir qiluvch omillardan biri ularning “Men-kontsepsiyasi” va kasbiy identifikatsiyasi. Kasbiy o’zini anglashning asosida o’smirning o’z shaxsiga nisbatan tasavvurlari yotadi. O’zlariga bo’lgan ishonchi qanchalik yuqori bulsa kasb tanlashga bo’lgan qo’rquvi shunchalik past bo’ladi. Bunga misol qilib shuni keltirishimiz mumkunki psixologlar ta’kidlashicha, “ideal men” va “real men” orasidagi moslik yuqori bo’lsa, kasb tanlash jarayoni barqarorroq kechadi. Aks holda o’smirda ikkilanish, o’ziga ishonchsizlik, motivatsiya pasayishi kuzatiladi [1.1]. Kasb tanlash jarayoni nafaqat intellektual, balki emotsional va irodaviy barqarorlik bilan ham bog’liq. O’z his-tuyg’ularini boshqara oladigan, maqsadga intiluvchan o’smirlar kasbiy qaror qabul qilishda faolroq bo’ladilar.

Tavsiya etiladigan yechimlar:

- psixologik diagnostika testlari (qiziqishlar, qobiliyatlar, shaxs tipologiyasi);
- kasb tanlash bo’yicha treninglar;
- ota-onalar bilan maslahatlar;
- maktablarda muntazam kasbga yo’naltirish mashg’ulotlari;
- real kasblar bilan tanishtiruvchi amaliy uchrashuvlar.

Xulosa

O’smirlarning kasbiy o’zini anglash jarayoni murakkab psixologik tizim bo’lib, qiziqishlar, qobiliyatlar, temperament, xarakter, motivatsiya va o’zlik tasavvuri bilan chambarchas bog’liqdir. Psixologik tadqiqotlar ushbu omillarni hisobga olgan holda kasbiy yo’naltirish olib borilganda o’quvchilarning ongli va barqaror kasbiy tanlov qilish imkoniyati oshishini ko’rsatmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimida psixologik yondashuv asosida kasbga yo’naltirishni tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. Qosimova A.X., Holiqova F.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2004.
3. Zamonaviy psixologiya manbalari asosida olingan umumiy ilmiy tahlillar (umumlashtirilgan ilmiy ma’lumot).
4. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №3) ISSN 2181-1709 (P)

